

## **O`QUVCHILARNI TEHNOLOGIYA FANIGA QIZIQTIRISH ORQALI INNOVATSION VA TADBIRKORLIK QOBILYATLARNI SHAKLLANTIRISH.**

*Namangan davlat pedagogika instituti Aniq fanlar  
kafedrası katta o`qituvchisi Tursunova Shahzoda Baxromovna  
Namangan davlat pedagogika instituti Texnologik ta`lim  
yo`nalishi talabasi Dedaxanova Binonaoy Ikrom qizi*

**Annotatsiya:** Shaxs ijodkorlik sifatlarini tarkib toptirish hamda rivojlantirishda pedagogik-psixologik jihatdan ulkan imkoniyatlar mavjud bo`lib, uning ro`yobga chiqishida nazariy izlanishlar va amaliy faoliyatni to`g`ri tashkil etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu borada bo`lajak pedagog kadrlar kasbiy ijodkorligini tashkil etish ko`p qirraliligi hamda murakkab kompleks tuzilmaga egaligi bilan o`ziga xos o`rin tutadi.

**Kalit so`zlar:** Ijodkorlik, tarbiya, ta`lim, tadbirkorlik, infratuzilma, innovatsion, tadqiqotchi, ta`lim resurslari, metod, ko`nikma.

Pedagogika ta`lim tarbiya jarayoni yaxlitlikda o`rganadigan fan .pedagoglar insonni hayotga tayyorlash bilan aqlan rivojlantiradi jismonan tayyorlaydi mustaqil shaxs bo`lishiga ko`maklashadi. Xayotda o`z o`rnini topishida tayanch vazifasini bajaradi. Shu jumladan Tehnologiya fani o`qtuvchilarining ro`li katta ahamiyat kasb etadi. Bir so`z bilan aytganda texnologik ta`lim yo`nalishi talabalarini o`quvchilarda tadbirkorlik ko`nikmalari va innovatsiyalarni rivojlantirish yuzasidan pedagogik faoliyatga tayyorlash yo`nalishida bilim, ko`nikma va malakalarni rivojlantirish quyidagi omillarga bevosita bog`liq.

Oliy ta`lim muassasalarini zamonaviy dasturiy mahsulotlar bilan ta`minlash, o`quv va ilmiy jarayonlarni o`quv va laboratoriya uskunalari, shuningdek laboratoriya materiallari (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa ob`ektlar) bilan muntazam ravishda zarur miqdorlarda ta`minlab borishning samarali mexanizmlarini yaratish;

kutubxona, o`quv ustaxonalari, laboratoriyalar infratuzilma ob`ektlariga nisbatan o`sib borayotgan ehtiyojni o`z vaqtida ta`minlash va zamon talablari asosida ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

innovatsion kutubxonalarni tashkil etish, ulardagi kitob fondini yangi avlod o`quv adabiyotlari bilan muntazam boyitish;

oliy ta`lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet bilan uzluksiz ta`minlash, talabalarning mustaqil ta`lim olishi uchun infratuzilma imkoniyatlarini kengaytirish;

talabalar, o`qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning elektron ta`lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma`lumotlar bazalaridan bepul foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kabi zarur vazifalarni bajarish talab etiladi.

Bizning jamiyatimizda “BOLA BOSHIDAN MA’LUM” degan maqol bor. Bu bejiz aytilmagan. Chunki bolaga ona qornidaligidanoq tarbiya berish boshlanadi, aqlini tanimasdanoq tarbiya berila boshlanadi. Asta sekinlik bilan mehnatga o'rgatib boriladi. Ta'lim tarbiya berilib ma'naviyati shakllantiriladi. Bolalar 1-sinfdanoq tehnologiya darslarini o'rgana boshlashadi. Bunda bolalarni ham aqlan ham jismonan rivojlanishiga yordam beradi. Bunda o'qtuvchining metodikasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Metod so'zi–yunoncha tadqiqot, maqsadga eltuvchi yo'li, usuli degani. Metod eng umumiy ma'noda – maqsadga erishish yo'li, ma'lum tarzda tartibga solingan usul hisoblanadi. Biz ta'lim metodini olib qaraydigan bo'lsak bilim ko'nikmalarni, o'rgatilgan materialni egallashga qaratilgan didaktik vazifalarni hal etish o'qtuvchining ishi va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi.

#### O'QITISH METODLARI

- 1) Og'izaki metod
- 2) Ko'rgazmali metod
- 3) Amaliy metod
- 4) Didaktik metod
- 5) Laboratoriya metodilari mavjud,

Shu metodlarni o'zida jamlagan pedagog dars jarayonini sifatli va qiziqarli holatda olib boradi,

Tehnologiyada darslarida oddiy rangli qog'ozga naqsh tushirib turli shakllar yasashdan boshlab ko'ylak andozalarini bichish tikishgacha o'rgatiladi. Qolaversa pishir kuydirishdan tortib, turli buyumlar tayyorlashni o'rgatadi. Kundalik turmushimizda tehnologiyada o'rgangan bilimlarimiz bizga juda katta yordam beradi. Inson zoti hayotga kelar ekan, umri davomida mehnat faoliyatini olib boradi. Bunda insonda hayotiy ko'nikma paydo bo'la boshlaydi. Har bir faoliyati ortidan insonda ko'nikma paydo bo'ladi va tajribaga aylanadi, kelgusi umri davomida ulardan foydalanadi. Tehnologiya. bugungi kunda bizga juda katta eshiklarni ochib beradi. Biz buning natijasida ulkan marralarni zabt etishimiz mumkin buni yanada chuquroq tushunadigan bo'lsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyoti ilgarilab borgan sari chuqur bilimlar, innovatsiyalar va ularni amaliyotda qo'llash usullarining ahamiyati ortib bormoqda, ya'ni bilim iqtisodiy taraqqiyotda asosiy o'rinlarni egallamoqda, ta'limning turmushdagi, uning turli sohalaridagi tutgan o'rnini tubdan o'zgartirmoqda. Yangi bilimlarni, axborotlarni, ko'nikma va malakalarni egallash, ularni yangilash va rivojlantirishga qaratilgan intilishlar zamonaviy mutaxassislarining asosiy tavsif ko'rsatkichlari bo'lib qoldi. Bugungi axborotlar jamiyatidagi iqtisodiy taraqqiyotning yangi tipi mutaxassislardan kasbiy bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib, malakalarini oshirib borishni talab etadi. Funktsional tayyorgarlik konsepsiyasidan shaxsni rivojlantirish konsepsiyasiga o'tishning mohiyati nafaqat buyurtma bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tizimidan shaxsning ehtiyojlarini qondirishga o'tishni, balki har bir insonning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, uning o'zini namoyon qilishiga va rivojlanishiga xizmat qiladigan, ta'limning individuallashtirilgan xarakterini

nazarda tutadi. Bu talabalarning va o'qituvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga oladigan turli ta'lim dasturlarini ishlab chiqish uchun turtki bo'lishi mumkin. Ta'limni rivojlantirishning ushbu yo'nalishida talabalarda zamonaviy va istiqbolli axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qish ko'nikmalari, mustaqil faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish muhim omil hisoblanadi.<sup>16</sup>

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy tendentsiyalaridan biri to'g'ridan – to'g'ri o'qitishdan talabalar bilan individual ravishda shug'ullanish tomonga o'zgarib bormoqda. Ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarning o'rni beqiyos albatta, lekin o'quv jarayonining salmoqli qismi muayyan mavzu yoki muammolar bo'yicha o'qituvchi bilan individual tartibda o'tkaziladigan maslahatlar davrida amalga oshirilishi mumkin.

Zamonaviy ta'limning asosiy xususiyati shuki, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisiga ma'lum bir bilim va ko'nikmalar yig'indisini egallash emas, ularni egallay bilish qobiliyatini rivojlantirish kerak, ishchanlik emas, tashabbuskorlik va mustaqillik xislatlari kerak. Oliy ta'lim muassasasi pedagogining vazifasi talabani o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Shaxs ijodkorlik sifatlarini tarkib toptirish hamda rivojlantirishda pedagogik-psixologik jihatdan ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, uning ro'yobga chiqishida nazariy izlanishlar va amaliy faoliyatni to'g'ri tashkil etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu borada bo'lajak pedagog kadrlar kasbiy ijodkorligini tashkil etish ko'p qirraliligi hamda murakkab kompleks tuzilmaga egaligi bilan o'ziga xos o'rin tutadi.<sup>17</sup>

Misol uchun oddiy qo'l mehnatidan yasaladigan zargarlik buyumlarini oladigan bo'lsak, unga bo'lgan talab juda katta. Yurtimizga turistlar juda ko'p tashrif buyurishadi. Ularga bizning qadimiy obidalarimizdan tortib qo'l mehnati bilan mohirona uslubda tayyorlangan buyumlarimiz sayyohlarni hayratda qoldiradi. Qo'l mehnatidan tayyorlangan "TILLA QOSHLAR, MARJONLAR, BILAKUZUK-U TURLI HILDAGI TAQINCHOQLAR" turistlarda juda katta qiziqish uyg'otmoqda. Nafaqat ularda balki biz yoshlarni orasida ham hozirgi kunda urfga aylangan qo'l mehnatidan tayyorlangan taqinchoqlar taqish.

Taqinchoqlar shu qadar mohironalik bilan tayyorlanadiki ko'rgan odamni havasi keladi. To'g'ri aytishlari mumkin TILLAQOSHDAN qadimda foydalanilgan deb, lekin unday emas hozirgi kunda, oldingiga qaraganda TILLA QOSHGA bo'lgan talab kuchli. Umuman olganda nafaqat unga balkim, qo'l mehnati bilan tayyorlangan taqinchoqlarga ham talab kuchli. O'zbekistonda nafaqat bu yerda, chet mamlakatlarida ham bunga bo'lgan talab juda kuchli. Shunday ekan bu narsalar

---

<sup>16</sup> **Турсунова Ш.Б.** Булажак технология фани ўқитувчиларини педагогик фаолиятга тайёрлашда замонавий таълим технологияларидан фойдаланиш. "ILM – FAN MUAMMOLARI YOSH TADQIQOTCHILAR TALQINIDA" Respublika ilmiy konferensiyasi 25.12.2022. №3 Б.204-207. ISSN 2181-3035.

<sup>17</sup> **Турсунова Ш.Б.** Ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмалари ва инновацияларни ривожлантиришда технология фанининг ўрни ва ахамияти Respublika ilmiy konferensiyasi ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANISH 27.12.2022 28-(12) SON.Б.87-92 [HTTPS://ACADEMICSRESEARCH.COM/INDEX.PHP/CONFERENCE](https://ACADEMICSRESEARCH.COM/INDEX.PHP/CONFERENCE)

hech qachon yo‘q bo‘lib ketmaydi ,nasldan naslga, zamondan zamonga o‘tib boraveradi. Ularning qadr qimmatini yo‘qolib ketmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Турсунова Ш.Б. Бўлажак технологик таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш педагогик муаммо сифатида// НамДу илмий ахборотномаси.-Наманган,2022.№ 10- сон. Б 469-474.(13.00.00; №30)

2.Турсунова Ш.Б. Ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмалари ва инновацияларни ривожлантиришда технология фанининг ўрни ва аҳамияти Respublika ilmiy konferensiyasi ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO‘LLANISH 27.12.2022 28-(12) SON.Б.87-92 [HTTPS://ACADEMICSRESEARCH.COM/INDEX.PHP/ CONFERENCE](https://academicsresearch.com/index.php/conference)

3.Турсунова Ш.Б. Бўлажак технология фани ўқитувчиларини педагогик фаолиятга тайёрлашда замонавий таълим технологияларидан фойдаланиш. “ILM – FAN MUAMMOLARI YOSH TADQIQOTCHILAR TALQINIDA” Respublika ilmiy konferensiyasi 25.12.2022. №3 Б.204-207.ISSN 2181-3035.